Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/18

Khalilulloh SAIDAKBAROV[a]

[a] *PhD Student*
International Islamic Studies Academy of Uzbekistan
11A, Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: saidakbarovxalilulloh@gmail.com

IBN KASIRNING «AL-BIDOYA VA-N-NIHOYA» ASARIDA FOYDALANGAN MANBALARI

Annotatsiya. *Ibn Kasirning «al-Bidoya van-Nihoya» asari islom tarixshunosligida muhim o'rin tutgan umumiy tarix janrining yirik namunalaridan biri bo'lib, olamning yaratilishidan boshlab qiyomat alomatlarigacha bo'lgan keng tarixiy va ilohiy jarayonlarni qamrab oladi. Asarda Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflar asosida arsh, kursiy, farishtalar, jinlar, insoniyat va payg'ambarlar tarixi, shuningdek, Xulafoyi Roshidin, Umaviylar, Abbosiylar hamda muallif yashagan davr voqealari tarixiy manbalar asosida yoritilgan. Ibn Kasir tarixiy hodisalarni xronologik izchillikda bayon qilish bilan birga, ulardan ibrat olish, voqealarning sabab va oqibatlarini anglash hamda rivoyatlarni tanqidiy tahlil qilishga alohida e'tibor qaratadi. Asar mazmunan to'rtta asosiy qismni o'z ichiga oladi: qadimgi tarix, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) siyrati, musulmon davlatlari tarixi va qiyomat alomatlari. Muallif o'z tadqiqotida Qur'on, hadislar, siyrat asarlari, umumiy tarixiy manbalar, biografik adabiyotlar, shaharlar tarixiga oid asarlar hamda isroiliyot rivoyatlaridan foydalangan. Mazkur manbalardan foydalanish jarayonida rivoyatlarning mazmuni va ishonchliligini baholashga intilgan. Ushbu maqolada asarning manbaviy asoslari, tarixiy ma'lumotlarni bayon etish uslubi va islom tarixshunosligi rivojidagi ilmiy ahamiyati yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *tarix, Qur'on, hadis, taboqot, isroiliyot, siyrat, rivoyat.*

SOURCES USED IN IBN KATHIR'S WORK «AL-BIDAYA WA AL-NIHAYA»

Abstract. *Ibn Kathir's "Al-Bidaya wa al-Nihaya" is one of the most significant works in the genre of universal history in Islamic historiography, covering a wide range of historical and theological events from the creation of the world to the signs of the Day of Judgment. Based on verses from the Holy Qur'an and hadiths, the work examines the Throne (Arsh), the Footstool (Kursi), angels, jinn, the history of humankind and the prophets, as well as the historical events of the Rightly Guided Caliphs, the Umayyad and Abbasid dynasties, and the period in which the author lived. In addition to presenting historical events in chronological order, Ibn Kathir emphasizes the importance of drawing lessons from them, understanding their causes and consequences, and critically examining transmitted reports. The work consists of four main parts: ancient history, the biography of Prophet Muhammad (peace be upon him), the history of Muslim states, and the signs of the Day of Judgment. In compiling this work, Ibn Kathir drew upon the Qur'an, hadiths, works on the Prophet's biography (sira), general historical chronicles, biographical literature, books on the history of cities, and Isra'iliyyat reports. He also sought to assess the content and reliability of the transmitted accounts. This article examines the source foundations of the work, its approach to presenting historical information, and its scholarly significance in the development of Islamic historiography.*

Keywords: *history, Qur'an, Hadith, tabaqat, Isra'iliyyat, sirah, rivaya.*

Ibn Kasir «al-Bidoya va-n-nihoya» nomli asari bilan muhim tarixchilar qatoridan o‘rin olgan. Siyrat yozish bilan boshlangan islom tarixnavisligi, keyinchalik futuhot, tabaqot, mu’jamot, umumiy tarix, xalifalar va musulmon davlatlari tarixi, ayyom al-arab, manoqib kabi turli yo‘nalishlarga ajralgan va bu sohalarda ko‘plab asarlar yozilgan.

«Al-Bidoya va-n-nihoya» asari, yuqorida zikr qilingan tasnifga ko‘ra, umumiy tarix janriga mansub bo‘lib, u islom tarixnavisligi an’analaridagi keng qamrovli yondashuvni o‘zida mujassam etadi. Ibn Kasir mazkur asarda tarixiy voqealarni olamning yaratilishidan boshlab bayon etadi. Jumladan, dastlab Arsh, Kursiy, farishtalar, jinlar va insonning yaratilishi kabi metafizik va ilohiyotga doir mavzularni bayon qiladi. Ibn Kasir bu mavzularni yoritishda Qur’on oyatlariga tayanadi. Shundan so‘ng, payg‘ambarlar tarixi, xususan, siyratga keng o‘rin ajratadi.

Asarning keyingi boblarida xulofai roshidin, Umaviylar va Abbosiylar davrlari tarixi manba va rivoyatlar asosida ketma-ketlikda bayon qilingan. Ibn Kasir, shuningdek, o‘zi yashagan davr voqealarini ham tasvirlab bergan. Qolaversa, u ba’zi yillarda dunyoning boshqa hududlarida yuz bergan muhim siyosiy va ijtimoiy hodisalarga ham e’tibor qaratgan. Asarning so‘nggi boblari esa qiyomat alomatlari, oxirat, jannat va do‘zax kabi mavzularga bag‘ishlangan1.

Ibn Kasir turli ma’lumotlarni jamlagan manbalardan foydalangani, tanqidlarga qaramay isroiliyotlarga ham e’tibor qaratgani, uning xabar va ma’lumotga alohida ahamiyat berganini ko‘rsatadi. Ibn Kasir tarix yozish usuliga ko‘ra, avval tarixiy hodisani keltiradi, so‘ngra hodisa bilan bog‘liq o‘z fikrlarini bayon qilishga harakat qiladi. Ibn Kasir tarixdan ibrat olish usulini keng qo‘llagan. Uning fikriga ko‘ra, tarixiy xabardan ko‘ra, undan olinadigan xulosalar muhim hisoblanadi. Aslida, tarixni ibrat olish uchun yozish va o‘qish shaklidagi yondashuv Qur’onda ham o‘z aksini topganini ta’kidlab o‘tish kerak. Qur’onning ko‘plab o‘rinlarida o‘tgan payg‘ambarlar hamda ularning qavmlari haqida so‘z yuritiladi, insonlar ulardan ibrat olishga chaqiriladi. Ammo Ibn Kasir buni ilmiy uslubni saqlab qolgan holda amalga oshirgan deyish mumkin. U ba’zida o‘zi foydalangan muallifning ismini, ba’zida esa asarning nomini yoki har ikkisini birga keltirish orqali bu boradagi ehtiyotkorligini namoyon qilgan. Ibn Kasir ayrim rivoyatlarni bir-biri bilan qiyoslab, ulardan qaysi biri ishonchliroq ekanini aytadi, ba’zida voqealarni muhokama qiladi, ba’zida esa tanqidiy yondashadi. Bularning barchasi uning ilmiy uslubdagi yuksak darajasini ko‘rsatadi.

Ibn Kasirning tarixiy hodisadan ibrat olishga urinishini quyidagi misolda ko‘rish mumkin. Ibn Kasir 1349-yilda Damashq noibi Argunning Taroblus noibi Sayfuddin Olchaybog‘a Muzaffariy Nosiriy tarafidan qo‘lga olinishi bilan bog‘liq xabarni quyidagi shaklda bayon qiladi: «Taroblus noibi Muzaffariy minglarcha askari bilan birga Damashqqa bostirib kirdi. Bu paytda Sayfuddin Argun yotog‘ida rohat olib uxlab yotardi. Sayfuddin Argun tashqariga chiqqanida qo‘lga olinib, zanjirband etildi. Keyin esa qamoqqa tashlandi. Uning barcha mol-mulki tortib olindi».

Ibn Kasir yuqoridagi hodisani naql qilgach, undan xulosa chiqarishga harakat qiladi va quyidagilarni yozadi: «Damashq noibi Sayfuddin Argun oqshom izzat ichida uyquga yotgandi. Ammo tongda zillat ichida uyg‘ondi. Oqshomda saltanat noibi edi. Sabohda yo‘qsil, uzilgan va zalil bir holatga keldi»2. Ibn Kasir Sayfuddin Argun tushgan holatdan olgan xulosasini Oli Imron surasining 26-oyati hamda A’rof surasining 97–98-oyatlari bilan quvvatlashga harakat qiladi3.

Asar umumiy tarix yoritilgan manbalar sirasiga kiradi. Muallif uni yozishda o‘rta asrlar islom tarixnavisligi an’analariga sodiq qolgan. U asarni yaratishda o‘zidan avvalgi va o‘ziga zamondosh tarixchilar uslubiga ergashgan. Shu bilan birga, u o‘ziga xos bo‘lgan uslubdan ham foydalangan. Jumladan, tarixiy voqealarni to‘laligicha bayon qilgan, aniq va to‘g‘ri ma’lumotga yetishish uchun rivoyatlarni aksar hollarda takrorlagan. Bir hodisa haqidagi ishonchli rivoyatlarni keltirish bilan birga, ishonchsiz deb hisoblangan xabarlarni ham zikr qilgan. Rivoyatlarga tanqidiy yondashgan, ba’zi o‘rinlarda o‘zining qarashlarini keltirsa, ba’zi qarashlarni esa rad etgan, to‘g‘ri deb bilganlarini esa ta’kidlab o‘tgan.

Ibn Kasir asarni to‘rtta katta qismga bo‘lgan. Bu qismlarni shartli ravishda quyidagi nomlar bilan keltirish mumkin:

1. Qadim tarix. Ibn Kasir bu bo‘limda maxluqotlarning yaratilishidan boshlab, Arsh, Kursiy, osmon, Yer va uning ichidagi narsalar, farishta, jin

[1]Ziyo Polat, Tarixchi o‘laroq Ibn Kasir. Magistrlik dissertatsiyasi/ Marmara universiteti. – Istanbul, 2003. – B. 78.

[2]Ibn Kasir. Al-bidoya va-n-nihoya // Abdulloh ibn Abdulmuhsin Turkiy tahqiqi. – Bayrut: Dor al-hijr, 1999. – J. 15. – B. 512-513.

[3]Mustafa O‘zkan, Ibn Kasir. – Istanbul: Ansor, 2022. – B. 94-95.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

va shaytonning yaratilishi, Odam (a.s.) yaratilishi, payg‘ambarlar tarixi va johiliya davridagi jarayonlarni bayon qilgan.

2. Siyrat. Bu bo‘lim Payg‘ambar (s.a.v) hayotiga bag‘ishlangan. U kitobning deyarli uchdan bir qismini tashkil etadi. Ibn Kasir bu bo‘limni yozishdan maqsadini quyidagicha ifodalaydi: «Hazrati Payg‘ambar alayhissalomning siyratlarini chanqagan ko‘ngillarga suv sepadigan, xasta ko‘ngillardagi dardni ketkazadigan shaklda bayon qilishga harakat qilaman».

3. Musulmon davlatlari tarixi. Ibn Kasir bu bo‘limda xulofai roshidin davridan boshlab, Umaviylar, Abbosiylar davridagi turli davlatlar va mamlukiylar haqida ma’lumot bergan va uni 1366-yil voqealari bilan tamomlagan. Muallif mazkur bo‘limda nafaqat siyosiy voqealarni, balki ijtimoiy hayotga doir muhim ma’lumotlarni ham yoritgan. E’tiborli jihati, u o‘zi yashagan davrga oid muhim voqelarni bayon qilgan.

4. Qiyomat a’lomatlari va oxirat hayoti. Ibn Kasir asarning «an-Nihoya» qismida qiyomat a’lomatlari, o‘limdan so‘ng qayta tirilish, qabrdan chiqish, qiyomatdagi qo‘rqinchli holatlar, qiyomat kunining xususiyatlari, u kunda yuzaga keladigan hodisalar, jannat va jahannam haqida zikr qilgan.

«Al-Bidoya»ning eng muhim xususiyatlaridan biri – bu uning keng manbalardan foydalangan holda yozilganidir. Asarda avval Qur’on va sunnatdan keltirilgan iqtiboslar bayon qilinadi, so‘ngra islom tarixining boshqa manbalari va isroiliyotlar bilan mavzu boyitiladi.

Ibn Kasirning muhaddis bo‘lgani mazkur asarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu sababli, asar sahih hadisni zaif va illatli rivoyatdan ajratish, roviylarni jarh va ta’dil qilishda ahamiyatga ega4. Asarining ilk, ikkinchi va oxirgi bo‘limlarida hadislardan keng foydalanilgan. Naql qilingan hadislarning manbalari ko‘rsatilgan. Zaif sanadli rivoyatlar boshqa hadislar bilan quvvatlangan, bir rivoyatni birdan inkor qilishga shoshilmagan.

«Al-Bidoya» tarixiy ma’lumotlarning turlitumanligi bilan ham ajralib turadi. Ilk bo‘limlarda foydalanilgan manbalar oyat va hadislar, ba’zi tanlangan isroiliyotlarga oid xabarlardir. Siyrat qismida, muallif o‘zidan avval yozilgan siyar va mag‘oza janridagi kitoblariga qo‘shimcha ravishda, ko‘plab hadis to‘plamlaridan ham foydalangan. Uchinchi bo‘limda esa ko‘proq Tabariy, Ibn Asir va Birzoliy kabi mualliflarning asarlaridan keng foydalangan. So‘nggi qismda yana oyat va hadislarni manba sifatida keltirgan5.

Ibn Kasir asarning ilk va so‘nggi qismlarida eng ko‘p oyat va hadislardan birlamchi manba sifatida foydalangan. Ibn Kasir asar boshida islom ilohiyotiga oid dunyo va inson yaratilishi kabi mavzularni yoritishda Qur’on oyatlariga tayangan. Bundan tashqari, u Qur’onda zikr qilingan payg‘ambarlar hayoti, ular yuborilgan qavmlarning holati kabi mavzularni ham Qur’on oyatlari asosida yozadi. Muhammad (s.a.v.) davrida sodir bo‘lgan voqealar haqida oyatlar kelgan bo‘lsa, ularni zikr qiladi. Masalan, Ibn Kasir Badr jangini yoritishda avval voqeaga doir nozil bo‘lgan oyatlarni keltirgan.

Ibn Kasir, yuqorida ta’kidlanganidek, eng avvalo, birlamchi manba sifatida Qur’ondan foydalanadi. Jumladan, «Shunday qilib, senga o‘tgan narsalar xabarini qissa qilib berurmiz» (Toha surasi, 99-oyat) oyatini keltirgach, quyidagicha izoh beradi: «Alloh taolo payg‘ambariga o‘tmishda yashagan mavjudotlar haqida, o‘tgan ummatlarning holati, do‘stlariga nima qilgani va dushmanlarining boshiga nimalarni solgani haqida xabar bergan»6.

Asarning birinchi bo‘limida foydalanilgan yana bir manba isroiliyotlardir. Muallif Qur’on va sunnatga zid kelmagan isroiliyotlardan ham foydalanganini ta’kidlab o‘tadi. Tarixiy manbalarida isroiliyotlar keng qo‘llanilgani ma’lum. Masalan, Tabariyning kitobi isroiliyotlar eng ko‘p uchraydigan manbalardan biridir. Ibn Kasir ham boshqa tarixchilar kabi isroiliyotlardan keng foydalangan. Ammo u bu rivoyatlarni qo‘llashda ma’lum shartlarga rioya qilgan. U rivoyatlarni ma’lum mezonlarga ko‘ra baholagan va faqat ana shu mezonlarga mos kelgan rivoyatlarni asarga kiritgan. Masalan, Ibn Kasir Odam (a.s.)ning yaratilishi haqida keltirgan rivoyatlarning aksariyati hadislar bilan quvvatlangan isroiliyot ekanini aytadi va bu mavzuga oid hadislarni keltiradi7. Shuningdek, u Shom janubida joylashgan «Qon g‘ori» nomi bilan tanilgan bir g‘or mavjudligi haqida so‘z ochadi va ahli kitob manbalarida Qobil ukasi Hobilni shu g‘orda o‘ldirganini aytadi. Biroq Ibn Kasir bu masalaga doir hadisdan uni tasdiqlovchi hech qanday dalil topmaganini ta’kidlaydi8. Bundan

[4] Jaloliddin Abdurrahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Tabaqot al-huffoz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1403. – B. 534.

[5] Mehmet Emin Yildirim. Bir tarix klassiki o‘laroq al-bidoya vannihoya // Tekerrürden Tekeffüre Tarix. Istanbul: Siyer Yayınlari. 2021. – B. 454-455.

[6] Ibn Kasir. Al-bidoya va-n-nihoya // Abdulloh ibn Abdulmuhsin Turkiy tahqiqi. – Bayrut: Dor al-hijr, 1999. – J. 15. – B. 4.

[7] O‘sha asar. – B. 115.

[8] Ibn Kasir. Al-bidoya va-n-nihoya // Abdulloh ibn Abdulmuhsin Turkiy tahqiqi. – Bayrut: Dor al-hijr, 1999. – J. 15. – B. 126.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

tashqari, u Ibrohim (a.s.)ning Hojarga uylanishi, Ismoil (a.s.)ning tug‘ilishi haqida bayon qilganida ham ahli kitob manbalariga tayanadi. Shuningdek, u Ibrohim (a.s.) o‘z farzandlaridan qaysi birini qurbon qilgani masalasini muhokama qilar ekan, Qur’on va hadisdan dalillar keltirib, qurbon qilingan farzand Ismoil (a.s.) bo‘lganini aytadi hamda buning aksini da’vo qiluvchilarning ahli kitob manbalariga suyanayotganlarini bildiradi.

Muallif asarni yozishda oyat va hadislardan tashqari, boshqa ko‘plab manba va asarlarga murojaat qilgan. Ibn Kasirning asarda foydalangan manbalarini quyidagi tartibda berish mumkin:

1. Siyrat asarlari. Ibn Kasir johiliya davri va siyrat bo‘limini yozishda bu asarlardan keng foydalangan. Xususan, Muso ibn Uqbaning «Mag‘oza», Yahyo ibn Saidning «Mag‘oza», Ibn Ishoqning «Siyrat», Ibn Hishomning «Siyrat», Voqidining «Mag‘oza», Suhaylining «Ravzul Unf» asarlaridan keng foydalangan.

2. Umumiy tarix asarlari. Ibn Kasir bu asarlardan ko‘proq uslub nuqtai nazaridan hamda xulofai roshidin davridan o‘zi yashagan paytgacha bo‘lgan tarixiy voqealarni yozishda foydalangan. Xulofai roshidin davri va keyingi davrlar tarixini yoritishda, eng avvalo, Tabariyning «Tarix», Ibn Jazviyning «Muntazam», Ibn Asirning «al-Komil fi-t-tarix» asarlaridan, o‘zi yashagan davr tarixini yoritishda esa ustozi Birzoliyning «al-Muqtafiy» nomli kitobidan foydalangan. Hatto Ibn Kasirning asari Birzoliy asariga zayl sifatida ko‘rilgan.

3. Biografiya va shaharlar tarixiga oid kitoblar. Ibn Kasir tarixiy shaxslarning biografiyalari, Payg‘ambar (s.a.v.)ning so‘zlari, siyrat va musulmon mamlakatlarining tarixini bayon qilishda bu turdagi kitoblarda kelgan rivoyatlardan foydalangan. Jumladan, Ibn Sa’dning «at-Tabaqot», Xalifa ibn Hayyotning «at-Tabaqot», Ibn Qutaybaning «al-Maorif», Abu Nuaymning «Hilya» kabi asarlariga tayangan. Xatib Bag‘dodiyning «Tarixi Bag‘dod», Samoiyning «Kitob al-ansob», Abu Shama Maqsidiyning «Kitob ar-ravzatayn fi axbor ad-davlatayn», Ibn Asokirning «Tarixi Damashq», Ibn Asirning «Usd al-g‘oba», Ibn Xallikonning «Vafayot al-ayon» va Mizzining «Tahzib al-kamol» asarlari ham shular jumlasidandir.

Hadis kitoblari. Ibn Kasir Imom Molikning «al-Muvatto», «al-Kutub as-sitta» to‘plami, Tabaroniyning «al-Mu’jam», Ahmad ibn Hanbalning «al-Musnad» kabi hadis asarlaridan Payg‘ambar (s.a.v.) hayotini yoritishda, shuningdek, asarning so‘nggi bo‘limida keng foydalangan. Shu bilan birga, boshqa bo‘limlarda ham tarixiy voqeadan ibrat chiqarishda foydalangan.

Ibn Kasir asarni yozishda Qur’ondan keyin hadislarga tayangan. Jumladan, Payg‘ambar (s.a.v.) davriga oid bir voqeani bayon etar ekan, Qur’oni karim oyatlaridan so‘ng sahih hadislarni keltirgan va ba’zi kamchiliklarni boshqa rivoyatlar bilan to‘ldirishga harakat qilgan. Ibn Kasir sahih deb hisoblagan hadislarni asl holicha keltirgan, aksariyat hollarda ularning manbalarini ham zikr qilgan. Lekin bir mavzuda ko‘p hadis mavjud bo‘lsa, har gal manbani takrorlashni zarurat deb bilmagan. U hech bir rivoyatni darhol inkor etishga urinmagan, balki uni boshqa manbalardan ham tekshirib ko‘rgan.

Ba’zan u ayrim rivoyatlarga muhaddis sifatida tanqidiy yondashgan. So‘ngra esa ularni boshqa rivoyatlar bilan mustahkamlashga harakat qilgan. Masalan, Uhud kuni Abu Sufyon aytgan so‘zlar bilan bog‘liq bir rivoyatni «g‘arib» deb baholagan, lekin keyin boshqa rivoyatlarni keltirib, voqeani aniqlashtirgan.

5. Guvohlar. Ibn Kasir hodisani yoritishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri guvoh bo‘lgan shaxslardan ham foydalangan, ba’zan esa voqeani guvohlar tilidan rivoyat qilib keltirganini ko‘rish mumkin.

6. Shaxsan guvoh bo‘lgan hodisalar. Ibn Kasir o‘z davrining mashhur shaxslaridan biri bo‘lgan. Ibn Kasir siyosiy jihatdan ko‘plab muhim voqealarga guvoh bo‘lgan va ularni o‘z asarida bayon qilgan. U Sulton Nosir Muhammadning 1313-yilda Hajdan qaytayotib, Damashqqa tashrif buyurishiga bevosita guvoh bo‘lgan. Bu voqea haqida turli shaxslar va manbalardan foydalangani kabi, o‘zi ko‘rgan voqealarni ham yozgan. Shuningdek, Ibn Kasir 1352-yilda Mamluk Sultoni Malik Solih Qalovun hamda Xalifa Mu’tazid ibn Mustaqfiyning Damashqqa kelishiga ham guvoh bo‘lgan va xalifa bilan uchrashgan.

7. Maktublar, farmonlar va arxiv ma’lumotlari. Ibn Kasir o‘zi yashagan davrda yozilgan hujjatlardan shu davr tarixiy hodisalarini yoritishda keng foydalangan. Ibn Kasir 1333-yil voqealarini bayon etar ekan, quyidagilarni aytadi: «Makkadan yozilgan bir maktub Ramazon oyida Damashqqa keldi. Bu maktubda bayon qilinishicha, Hijoz o‘lkasida yomg‘ir yog‘ishi va chaqmoqlarning tushishi oqibatida ba’zi odamlar halok bo‘lgan. Bundan tashqari, yomg‘ir ham haddan tashqari ko‘p yog‘gani haqida xabar berilgan edi[9].

[9]Ibn Kasir. Al-bidoya va-n-nihoya // Abdulloh ibn Abdulmuhsin

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Shuningdek, Ibn Kasir 1355-yil voqealarini bayon etar ekan, quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «Molikiy mazhabidagi bosh qozining maktubida o'qiganimga ko'ra, salibchilar Taroblusni shu yilning Rabi'ul avval oyining boshida, juma kechasi bosib olgan ekanlar».

8. She'rlar. Ibn Kasir asarda she'rlardan ham foydalangan. Zuhayliy Ibn Kasirning asaridagi she'rlarning arabcha fihristi 103 sahifani tashkil etishini aytadi[10]. Muallif asarda ba'zan bir bayt, ba'zan butun qasidani keltiradi. Xususan, u johiliya davri tarixini yoritishda she'rlardan keng foydalangan.

U ba'zan mavzularni bayon etishda she'rlardan foydalangan. U buni ba'zan mazmunni boyitish uchun qilsa, ba'zan xilma-xillikni ta'minlash maqsadida qilgan. Masalan, Payg'ambar (s.a.v.) ning nasabini Abul Abbos Muhammad Noshiydan olgan bir she'r orqali bayon etgan. Ibn Kasir Rasulullоh (s.a.v.)ning payg'ambar bo'lganlari haqida so'z yuritar ekan, Varaqa ibn Navfalga oid bir nechta she'rlarni keltirgan. Shuningdek, Abu Bakr Siddiqning islomni qabul qilganini bayon qilishda ham she'rdan foydalangan.

«Al-Bidoya» islom tarixnavisligida alohida o'rin egallaydi. Muallif asarni yozishda birlamchi manba sifatida oyat va hadislarni tanlagan. Xususan, kitobning avvalgi va oxirgi qismlarida mazkur manbalardan keng foydalangan. Ibn Kasir asarning ba'zi o'rinlarida isroiliyotlarni ham keltirgan, ammo ularni qo'llashda ma'lum shartlarga rioya qilgan. Asarning yozilish uslubi voqealarni xronologik tarzda bayon etishga asoslangan bo'lsa-da, muallif voqealardan xulosa chiqarishga ham alohida e'tibor qaratgan. Ibn Kasir asarning keyingi bo'limlarida siyrat, tabaqot va tarixga oid asarlardan keng foydalangan. Bular orasida Tabariyning uslubi va asari alohida o'rin oladi. Ibn Kasir muayyan voqeani bayon etar ekan, faqat bitta rivoyat yoki xabarga tayanib qolmaydi, balki undan oldingi asarlarni solishtirgan holda ko'rib chiqadi, turli mualliflarning xabarlariga o'rin beradi va shu orqali matnni boyitadi. Ibn Kasir manbalarga shunchaki tayanib qolmay, ularga tanqidiy jihatdan ham yondashgan. Ba'zi rivoyatlarni Qur'on, hadis va aqlga mos kelmagani uchun rad qilgan. Hadis rivoyatlarida kuzatilgani kabi, tarixga oid xabarlarda ham isnod va matn yo'lidan tahlil qilgan. Asar o'quvchilarga eng to'g'ri ma'lumotni taqdim etishga harakat qilgan. Bu nuqtai nazardan Ibn Kasirning asari o'zidan keyingi tarix asarlariga uslub va ishonchlilik jihatidan tayanch bo'lib qolgan.

Turkiy tahqiqi. – Bayrut: Dor al-hijr, 1999.

[10]Muhammad Zuhayliy. Ibn Kasir ad-Dimashqi al-hofiz, al-mufassir, al-muarrih, al-faqih. – Damashq: Dor al-kalom. – B. 294.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibn Kasir. Al-bidoya va-n-nihoya // Abdulloh ibn Abdulmuhsin at-Turkiy tahqiqi.– Bayrut: Dor al-hijr, 1999. – J. 15.
2. Mustafa O'zkan/ Ibn Kasir. – Istanbul: Ansor, 2022.
3. Ziyo Polat, Tarixchi o'laroq Ibn Kasir // magistrlik dissertatsiyasi. – Istanbul: Marmara universiteti, 2003.
4. Ibn Qoziy Shuhba. Taboqot ush-shofeiyya. – Bayrut: Alam al-kutub, 1979. – J. 4.
5. Kevser Beyazyuz, Abul Fido Ibn Kasir. – Istanbul: Siyar yayinlari, 2022.
6. Adnan Kara. Bir mamlukiy oydin, byurokrat va tarixchi Ibn Kasir // doktorlik dissertatsiyasi. – Anqara: Anqara Yildirim Boyazit universiteti, 2017.
7. Qodir Paksoy, Ibn Kasir hayoti, asarlari va hadis ilmidagi o'rni // doktorlik dissertatsiyasi/ – Shonliurfa: Harron uniuversiteti, 1999.
8. Muhammad Zuhayli. Ibn Kasir ad-Dimashqi al-hafiz, al-mufassir, al-muarrih, al-faqih. – Damashq: Dor al-kalom.
9. Mehmet Emin Yildirim. Bir tarix klassiki o'laroq al-bidoya van-nihoya // Tekerrürden Tekeffüre Tarix. –Istanbul: Siyer Yayınlari, 2021.
10. Jaloluddin Abdurrahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Tabaqot al-huffoz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya.

REFERENCES

1. Ibn Kasir. Al-bidoya va-n-nihoya // Abdulloh ibn Abdulmuhsin at-Turkiy tahqiqi.– Bayrut: Dor al-hijr, 1999. – J. 15.
2. Mustafa O'zkan/ Ibn Kasir. – Istanbul: Ansor, 2022.
3. Ziyo Polat, Tarixchi o'laroq Ibn Kasir // magistrlik dissertatsiyasi. – Istanbul: Marmara universiteti, 2003.
4. Ibn Qoziy Shuhba. Taboqot ush-shofeiyya. – Bayrut: Alam al-kutub, 1979. – J. 4.
5. Kevser Beyazyuz, Abul Fido Ibn Kasir. – Istanbul: Siyar yayinlari, 2022.
6. Adnan Kara. Bir mamlukiy oydin, byurokrat va tarixchi Ibn Kasir // doktorlik dissertatsiyasi. – Anqara: Anqara Yildirim Boyazit universiteti, 2017.
7. Qodir Paksoy, Ibn Kasir hayoti, asarlari va hadis ilmidagi o'rni // doktorlik dissertatsiyasi/ – Shonliurfa: Harron uniuversiteti, 1999.
8. Muhammad Zuhayli. Ibn Kasir ad-Dimashqi al-hafiz, al-mufassir, al-muarrih, al-faqih. – Damashq: Dor al-kalom.
9. Mehmet Emin Yildirim. Bir tarix klassiki o'laroq al-bidoya van-nihoya // Tekerrürden Tekeffüre Tarix. –Istanbul: Siyer Yayınlari, 2021.
10. Jaloluddin Abdurrahmon ibn Abu Bakr Suyutiy. Tabaqot al-huffoz. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.